O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

KONSEPTLARNING METAFORIK IFODLANISHI VA TAHLIL SHAKLLARI

METAPHORICAL REPRESENTATION OF CONCEPTS AND FORMS OF ANALYSIS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/LWYR3694

Yusupova Aziza Muhiddin qizi,
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti
azizaxonyusupova1996@gmail.com

Annotation: *This thesis examines the conceptual foundations of metaphor, the ways in which metaphors are reflected in human cognition and language, and the major approaches to their analysis. Metaphor is considered not only as a means of artistic expression but also as an important cognitive mechanism through which people perceive, understand, and conceptualize the world. Drawing on the theory of conceptual metaphor, the study explores the relationship between source and target domains, the representation of abstract concepts through concrete images, and the linguocultural characteristics of metaphors. Particular attention is paid to semantic, cognitive, conceptual, linguocultural, discursive, and pragmatic approaches to metaphor analysis. The study demonstrates that metaphor represents an integral connection between language, cognition, and culture. A conceptual analysis of metaphors makes it possible to reveal the cognitive and culturally specific meanings underlying linguistic expressions and to gain a deeper understanding of metaphorical conceptualization.*

Keywords: *metaphor, concept, conceptual metaphor, cognitive linguistics, conceptualization, source domain, target domain, linguocultural studies, metaphorical thinking, metaphor analysis.*

Metafora til birliklarining badiiy bezagi emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biridir. Kognitiv lingvistika doirasida shakllangan konseptual metafora nazariyasi metaforani nutqiy voqelikdan tashqariga olib chiqib, uni fikrlash jarayonining ichki strukturasi bilan bog‘liq kognitiv hodisa sifatida talqin qiladi. Zero, D.Xudoyberganova ta’kidlaganidek, metafora olam

unsurlari va hodisalarini aniq, tushunarli, muxtasar va ta’sirchan ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. O‘zbek tili metaforalarini kognitiv yondashuvda, xususan, konseptual metafora nazariyasi (J.Lakoff, M.Jonson) hamda konseptual integrallashuv nazariyasi (J.Fokone, M.Terner) asosida tadqiq etish, shuningdek, tilimizdagi asosiy konseptual metaforalarni – bir bilim doirasiga tegishli muayyan tushunchalarga oid tajribadan foydalangan holda ikkinchi bilim doirasiga tegishli bo‘lgan mavhum tushunchalarni tushunish va tushuntirishga imkon beradigan asosiy mental tuzilmalarni aniqlash katta ahamiyatga ega [Xudoyberganova, 2025: 36]. J.Lakoff va M.Jonsonning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, metafora abstrakt tushunchalarni aniq tajriba asosida anglashga xizmat qiluvchi konseptual ko‘chirish tizimidir. Metafora atrofdagi voqelikka murojaat qilishning ikkita muhim sohasini ajratib turishi haqida oldingi boblarda ma’lumotga ega bo‘ldik. Unga ko‘ra manba sohasi aynan qiymat uzatiladigan muhim element, ya’ni manba domeni hisoblanadi. Ikkinchi soha – qabul qiluvchi sohasi, ya’ni konseptual metaforaning maqsadli sohasi. Metafora kognitiv nazariyaning bir qismi sifatida manba sohasi inson hayotining amaliy tajribasi sintezidir. Manba sohasidagi bilimlar tasvir sxemalari shaklida qurilgan bo‘lib, ular inson va dunyo o‘rtasidagi jismoniy o‘zaro ta’sir davomida doimo takrorlanadigan nisbatan oddiy kognitiv tuzilmalardir. Bir konseptual soha – manba sohasi, ikkinchi konseptual sohani – nishon sohani tartibga solish, anglash va kategoriyalashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tilshunos olimlar tomonidan metaforaning bu ko‘rinishi haqida turli hil fikrlar bildirilgan. Konseptual metaforalarning til metaforalaridan farqi shundaki, ular lisoniy birlik emas, tafakkur birligi hisoblanadi va yuqori darajadagi umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega bo‘ladi. Til metaforalari faqat nutqiy faoliyat doirasida amal qilsa, konseptual metaforalar boshqa sohalarga tegishli unsurlar, jumladan, artefaktlar orqali ham reallashishi mumkin [Панкратова, 2009: 83].

Konseptlarning metaforik talqini abstrakt tushunchalarni xuddi jismoniy obyektlarga o‘xshash tarzda chegaralangan makonga ega tizim sifatida konseptualizatsiya qilishga olib keladi. Masalan, “vatan”, “do‘stlik”, “dunyo” kabi abstrakt tushunchalar ham inson tajribasida allaqachon mavjud bo‘lgan konseptual sxemalar – yo‘nalish, tuzilma va chegaralangan makon kabi modellar orqali anglashilib tizimlashtiriladi. Bu holat inson tafakkurida jismoniy obyektlarga xos bo‘lgan “ichkaridan-tashqariga” modeli orqali abstrakt tushunchalarning ontologik xarakterga ega metaforik tasvirini shakllantiradi. Shuningdek, konseptual metaforaning yo‘naltiruvchi, strukturaviy va ontologik

turlari insonning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini anglash jarayonida muhim kognitiv mexanizmlar sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu metaforik modellash insonning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy tajribasi asosida shakllangan bilimlarni tartibga solidi. Bu esa murakkab tushunchalarni soddalashtirilgan konseptual shaklda idrok etish imkonini beradi.

Metaforalarning konseptual tahlili ularning tilga xos leksik-semantik xususiyatlaridan tashqari, insonning dunyoqarashi, tajribasi shuningdek, madaniy tajriba modeli bilan ham uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham metafora struktural xususiyatga ega bo‘lib, kognitiv jarayonlarni lingvistik vositalar orqali ifodalanish, o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbek she’riyati xalqqa xos poetik tafakkur, dunyoqarash va milliy qadriyatlarning eng yorqin ifodasidir. She’riy matnlarda metafora badiiy tasvir vositasi bo‘lishi bilan birga, muallifning konseptual olami, obrazli tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiruvchi kognitiv mexanizmdir. Shu ma’noda, o‘zbek poetikasida qo‘llanilgan metaforalar til birliklarining tashqi shakliy o‘ziga xosligidan ko‘ra, ularni yuzaga keltirgan konseptual strukturalar orqali yanada chuqurroq anglashni talab etadi. Shu bilan birga o‘zbek she’riyatidagi konseptual metaforalar milliy dunyo tasavvuri, tarixiy-madaniy qadriyatlar, diniy-falsafiy tasavvurlar hamda lirik qahramonning individual psixologik holatlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Masalan, “vatan – ona”, “hayot – yo‘l”, “qalb – daryo”, “sevgi – olov” kabi keng tarqalgan ko‘chimlar xalqning dunyoni idrok etish modelini aks ettiruvchi konseptual tizim sifatida shakllangan. Bunday metaforalar poetik matnning semantik tuzilishini va mohiyatini boyitib, unda yashiringan konseptual qatlamlarning ochilishiga imkon yaratadi.

She’riyat tilida esa “Vatan” kabi milliy-aksiologik konsept ko‘plab metaforik modellar orqali shoirlar ijodida qo‘llaniladi. Shu jihatdan, “Vatan” konseptini konseptual metafora nazariyasi orqali tahlil qilish an’anaviy tilshunoslik va kognitiv tilshunoslik kesishmasida o‘ta dolzarbdir. Quyida “Vatan” konsepti she’riyatda qanday metaforik modellarga ega ekanligi, ularning manba va maqsad domenlari, milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zbek shoirlari ijodidagi namunalar asosida tahlil qilinadi.

Emasdir falon ming aholi,
Vatan falon farsah masofa emas.
Uni yasha. Yo‘qsa kechmaydir xoli,
Vatan – xo‘rsiniqdir, Vatan bu – nafas
[Abdulhakim M, 2008: 210]

Tahlil qilinayotgan metafora turi manbadan belgilanadi va til birliklari aniqlanadi. She’riy parchada ikki asosiy metaforik konstruksiya mavjud bo‘lib, ular *“Vatan – xo‘rsiniq” va “Vatan – nafas”.* Har ikkisida mavhum konsept Vatan bevosita boshqa obyekt yoki holatga tenglashtirish orqali obrazli ma’no hosil qilmoqda. Metafora ifodalagan til birliklari “xo‘rsiniq” va “nafas” leksemalaridir. Ular semantik jihatdan jismoniy-hissiy holatni bildiruvchi aniq birliklar bo‘lib, she’rda mavhum konsept – Vatan bilan birlashtirilgan. Shu tariqa, metaforaning lingvistik manbai aniq belgilanib, “Vatan” konsepti insoniy kechinmalar xo‘rsiniq va hayotiy jarayon nafas bilan bog‘lanib, yangi obrazli struktura hosil qilyapti.

Keyingi bosqichda konseptual domenlar aniqlanadi. Manba domenlari. Xo‘rsiniq – biror g‘am, tashvish va shu kabilar tufayli chiqariladigan og‘ir nafas; ufurish; xo‘rligi kelib, keskin nafas olish. Hissiy-psixologik holat, sog‘inch, iztirob, ichki to‘lqinlanish tajribasiga asoslangan sezilarli domen. Nafas – uzluksiz biologik jarayon, ya’ni o‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo. Hayot davomiyligining asosiy sharti sifatida sensor-moddiy tajriba. Maqsad domeni Vatan – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; yurt, diyor. Tarixiy xotira, hissiy bog‘liqlikni o‘z ichiga olgan mavhum konsept.

Vatan – xo‘rsiniq. Bu ontologik metafora hisoblanib, mavhum konsept vatan aniq hissiy jarayon xo‘rsiniq sifatida talqin qilinmoqda. Qo‘shimcha tarzda uni aksiologik metafora sifatida ham talqin qilish mumkin, chunki vatan tushunchasi qadriyat maqomida idrok etilib, u subyektiv-hissiy darajada baholanmoqda. *Vatan – nafas*. Bu birlik strukturaviy metafora sifatida talqin qilinib, “Vatan” konsepti hayot jarayoniga o‘xshash sxematik model orqali tushuntirilmoqda. Metaforaning mazmunida “Vatan – hayotning asosi” degan g‘oya markaziy o‘rinni egallamoqda. Shuningdek, bu metafora antropologik xarakterga ega hisoblanib, unda “vatan” insonning tabiati, mavjudlik shakllari va ichki dunyosi bilan qiyoslab izohlanyapti. Shu yo‘l bilan vatan insonning shaxsiy tajribasi va mavjudlik asoslari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinyapti.

O‘zbek milliy tafakkurida vatan muqaddas qadriyat, ajdodlar xotirasi va tarixiy meros ramzi sifatida qabul qilinadi. *“Vatan-xo‘rsiniq”* metaforasi vatanni yo‘qotganda yoki undan uzoqda bo‘lganda yuzaga keladigan chuqur sog‘inch va ruhiy iztirobni ifodalaydi, bu esa o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan sog‘inch konsepti bilan uzviy bog‘liqdir. *“Vatan-nafas”* metaforasi esa vatanning hayotiy tayanch va inson mavjudligi uchun zarur ekanini aks ettiradi. Konnotativ

mazmuni jihatidan, xo‘rsiniq – iztirob, sog‘inch va ichki og‘riqni, nafas esa hayot, yengillik, zaruriyat va tinchlik hissini bildiradi.

Semantik va kognitiv natija sifatida konseptual model quyidagicha shakllandi: VATAN – XO‘RSINIQ (hissiy ehtiyoj + sog‘inch modeli) va VATAN – NAFAS (hayotiy zaruriyat modeli).

Semantik jihatidan metaforalar she’rda vatan mazmunini kuchaytirish, hissiy intensivlik yaratish, vatanni hudud emas, balki ruhiy-hayotiy birlik sifatida talqin qilish vazifalarini bajaradi. Kognitiv jihatdan esa adresantning ongida “Vatan” konsepti hissiy og‘riq (xo‘rsiniq), hayotiy zarurat (nafas) freymlari asosida shakllanadi. Ko‘chish jarayonida xo‘rsiniq → ruhiy kechinma, nafas → mavjudlik sharti mexanizmlari ishga tushadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu metaforalar vatanni ongda nafaqat hissiy mehr, balki hayotiy zarurat sifatida konseptual tarzda modellashtirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillar asosida Vatan konsepti oddiy hudud yoki aholi istiqomat qiladigan tushuncha emasligi, balki insonning ichki his-tuyg‘ulari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab mazmunni aks ettirishi aniqlanadi. Ya’ni Vatan nafas va xo‘rsiniq kabi obrazlar orqali inson hayoti va ruhiy holatining ajralmas bo‘lagi sifatida, shabnam timsolida nozik va omonat narsa sifatida, tog‘ obrazi orqali esa mustahkam va barqaror qadriyat tarzida ifodalanadi. Bunday ma’nolar esa Vatan konseptining turli metaforik modellar asosida ko‘p qirrali mazmun kasb etishini ko‘rsatadi. Zero, Vatan badiiy matnda nafaqat makonga oid tushuncha, balki insonning mavjudligi, hissiyoti va qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab semantik birlik ko‘rinishida ifodalanadi.

Konseptlarning o‘zbek she’riyatida metaforik ifodalanishini o‘rganish badiiy mantdagi konseptual modellar hamda ularning kognitiv va lingvokuturologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu konseptlarning metaforik ifodalanishida insonning milliy-madaniy qarashlari, ijtimoiy tajribasi va ruhiy kechinmalari aks etib, til va tafakkur, madaniyat hamda badiiy idrok o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.Konseptual metafora badiiy tafakkurning asosiy kognitiv jarayonlaridan biri bo‘lib, u orqali individual poetik qarashlar va milliy dunyoqarash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’minlanadi. Shu asosda tahlil qilingan konseptlar badiiy matnda obrazli tafakkur negizida shakllangan semantik tizim ko‘rinishida ifodalanishi aniqlandi. Shuningdek, metaforik strukturalar inson dunyoqarashi, tajribasi va

madaniy konseptlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular til birliklarida konseptual tuzilmalarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Fillmore Ch.J. Frame Semantics. In: Linguistics in the Morning Calm, Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – 112 p.

2. Lakoff G. & Johnson M. . Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

3. Xudoyberganova D. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik lug‘ati. – Toshkent, 2025. – 176 b.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. A. Madvaliyev, D. Xudoyberganova tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 962 b.

5. Matnazar A. Javzo tashrifi. – Toshkent: Sharq, 2008. – 191 b.

6. Tuychiyeva M. J. “Vatan” konseptining o‘zbek va ispan tillaridagi maqol va aforizmlarda ifodalanishi // Chet tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar, an’ana va innovatsiyalar. – 2025. – B. 514-519.

7. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – № 1. – С. 64-72.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**